

23-103-97916 son - SHARTNOMA

16-yanvar 2023-yil

O'zMMI DM Bekobod filiali

"TEXNOPARK" MCHJ nomidan _____ asosida ish olib boruvchi va bundan so'ng matnda "Buyurtmachi" deb ataluvchi _____ SARVAR AXADOV SAIDJAXONOVICH bir tomondan va "ЎЗММИ" ДМ (Бекобод филиали) nomidan 30.12.2022 йилдаги 22/3518-сонли ишончнома asosida ish yurituvchi, bundan so'ng "**Bajaruvchi**" deb ataluvchi - uning Direktori Исроилов Б. Х. ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMANING MAZMUNI VA ISHLARNING NARXI

1.1 "Buyurtmachi" topshirig'iga ko'ra "Bajaruvchi" ushbu shartnomada belgilangan tartib va shartlar asosida quyidagi tasnifda ko'rsatilgan ishlarni bajarish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

№	Xizmat ko'rsatuvchi bo'lim	Ishlar turi va o'lchash vositasi nomi	O'V ning soni	Xizmat narxi		QQS 12%	Xizmat qiymati (QQS bilan)
				Bir donasi uchun narx	Jami		
1	103. Bekobod filial	O'lchash vositalarini qiyoslash / 06-Штангенциркул ШЦ-1, 200 mm gacha	2	45 048,00	90 096,00	10 811,52	100 907,52
2	06.Geometrik va mexanik kattaliklarni o'lchash bo'limi	O'lchash vositalarini qiyoslash / 06-Микрометр МК, МГ, МТ, МЗ 0 дан 200 mm gacha	1	32 438,00	32 438,00	3 892,56	36 330,56
3	06.Geometrik va mexanik kattaliklarni o'lchash bo'limi	O'lchash vositalarini qiyoslash / 06-Меры толщины покрытий МН на НТО (қоплама қалинлиги ўлчагич)	1	216 046,00	216 046,00	25 925,52	241 971,52
4	103. Bekobod filial	O'lchash vositalarini qiyoslash / 06-Металли ўлчаш рулеткаси 2, 3 класс, 0 дан 10 m gacha	1	36 122,00	36 122,00	4 334,64	40 456,64
5	06.Geometrik va mexanik kattaliklarni o'lchash bo'limi	O'lchash vositalarini qiyoslash / 06-Шуплар (донаси учун)	17	23 153,00	393 601,00	47 232,12	440 833,12
6	06.Geometrik va mexanik kattaliklarni o'lchash bo'limi	O'lchash vositalarini qiyoslash / 06-Қислов бурчак ўлчагичи 400 mm gacha	1	35 553,00	35 553,00	4 266,36	39 819,36
7	103. Bekobod filial	O'lchash vositalarini qiyoslash / 07-Shitda o'rnatiluvchi ampermetr, voltmetrlar va chastotamerlar	2	44 479,00	88 958,00	10 674,96	99 632,96
8	09.Fizik-kimyoviy, optik-fizikaviy va harorat kattaliklarini bo'limi	O'lchash vositalarini qiyoslash / 09-Spektrofotometrlar (Спектрофотометры)	1	405 284,00	405 284,00	48 634,08	453 918,08
9	Qo'shimcha sayyor xizmat ko'rsatish / Дополнительный выездной сервис				490 465,40	58 855,85	549 321,25
Jami:				1 788 563,40	214 627,61	2 003 191,01	

Jami shartnoma summasi: **ikki million uch ming bir yuz to'qson bir so'm 01 tiyin**,shu jumladan QQS-ikki yuz o'n to'rt ming olti yuz yigirma yetti so'm 61 tiyin.

2. HISOB-KITOB TARTIBI

2.1 Ushbu shartnoma kuchga kirgach, "Buyurtmachi" 10 kalendar kuni mobaynida shartnoma bahosining 100% miqdoridagi to'lovni "Bajaruvchi"ning hisob-raqamiga pul o'tkazish majburiyatini oladi.

2.2 Ishlar Bekobod shahar tashqarisida bajarilganda qo'shimcha sayyor xizmatlar uchun alohida haq to'lanadi va ishlar bajarilish joyiga borish hamda namunaviy o'lchash vositalarini tashish, yashash va sutkalik xarajatlarni o'z ichiga oladi. "Buyurtmachi" transport taqdim etgan va haqiqiy ishlar bajarilish joyida yashash joyini ta'minlagan hollarda qo'shimcha sayyor xizmatlari uchun haq to'lanmaydi.

2.3 Qo'shimcha sayyor xizmatlarning narxi haqiqiy ishlar bajarilish joyiga va ishlarni bajarishga jo'natilgan "Bajaruvchi" vakillarining soniga bog'liq holda belgilangan tarifga muvofiq va ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan alohida hisob-kitob bilan aniqlanadi.

3. ISHLARNI BAJARISH, TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

3.1 3.1 Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni bajarish uchun "Bajaruvchi"ning so'roviga ko'ra "Buyurtmachi" 3 ish kuni mobaynida "Bajaruvchi"ga shartnomaning 1.1. bandida ko'rsatilgan o'lchash vositalari va zaruriy hujjatlarni topshiradi.

3.2 "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'lchash vositalari (sinov vositalari), (zarur xollarda) standart namunalar, hamda zarur hujjatlar (tasdiqlanadigan turdagi o'lchash vositalari (sinov vositalari), o'lchash vositalarining (sinov vositalarining) ekspluatatsiya va texnik hujjatlari) topshirilgan vaqtdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdagi 528-sonli «O'zbekiston Respublikasida Metrologiya xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarorida belgilangan muddatlarda "Bajaruvchi" ishni bajarish majburiyatini oladi. Shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq ko'rsatilgan muddatdan oshadigan o'lchash vositalari bundan mustasno.

3.3 "Buyurtmachi" tomonidan shartnomaning 2.1. va 3.1. bandidagi shartlarni o'z vaqtida bajarilmagan holatlarda, "Buyurtmachi" bu haqida "Bajaruvchi"ga yozma xabar berishga majbur. Bu holda, ishning boshlanish muddati tegishli ravishda kechiktirilgan vaqt muddatiga ko'chirilib, "Bajaruvchi"ning ish o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun javobgarlik kelib chiqmaydi.

3.4 Shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangach, "Bajaruvchi" bajarilgan ishlarni "Buyurtmachi"ga topshiradi va bajarilgan ishlar dalolatnomasini tuzadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1 Ushbu shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki to'liq bajarmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining boshqa amaldagi hujjatlarida ko'zda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1 Taraflar o'rtasida mazkur shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflar kelishuvi bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan nizolar Toshkent tumanlararo Iqtisodiy sudida hal qilinadi.

6. BOSHQA SHARTLAR

6.1 Shartnoma faqatgina tomonlarning kelishuvi asosida o'zgartirilishi mumkin. Ushbu shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish yoki qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilib, taraflar tomonidan imzolanadi va ular shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.2 Shartnoma ikkala tomonning o'zaro kelishuviga ko'ra, boshqa bir tomonning shartnoma shartlarini buzgan holda yoki ishlar bajarilishi uchun o'lchash vositalari (sinov vositalari) va zarur hujjatlar o'z vaqtida topshirilmagan, shartnomaning 2.1. bandi "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmagan yoki ishlar bajarilishini kechiktirish haqidagi yozma xabarnomasi bo'lmagan holatlarda quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:

6.3 Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon ikkinchi tomonga bekor qilinishi ko'zlanayotgan muddatdan 15 kun avval yozma xabarnoma yuboradi.

6.4 Shartnoma bekor qilinganidan so'ng, shartnoma yuzasidan haqiqiy xarajatlar bo'yicha o'zaro hisob-kitob qilinadi.

6.5 Ish va xizmatlar narxi o'zgargan holatlarda, shuningdek, ushbu shartnomaning amal etish vaqtida eng kam ish haqi miqdori o'zgarganda, tegishli indeksatsiya koeffitsiyenti asosida shartnomaning narxi qayta ko'rib chiqiladi va yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

6.6 “Bajaruvchi” quyidagi ma’lumotlarni “Buyurtmachi”ning yozma ruxsatisiz uchinchi tarafga taqdim etmaslik majburiyatini oladi:

- o’lchash vositalarining (sinov vositalari)

kalibrlash (yoki qiyoslash) natijalarini, kalibrlash (yoki qiyoslash) bayonnomasi va sertifikati nusxasi, “Bajaruvchi” va “Buyurtmachi” o’rtasidagi moliyaviy ma’lumotlar);

- “Buyurtmachi”ning xodimlari haqidagi shaxsiy ma’lumotlar;

- “Buyurtmachi”ning ishlab chiqarish (xizmat ko’rsatish) jarayoni bilan bog’liq ma’lumotlar, rivojlantirish bo’yicha rejalari, sxemalar va chizmalar;

- mahsulot (xizmat) qiymati va narxi;

- “Buyurtmachi”ga taqdim etilgan birlamchi ma’lumotlar;

- soliq to’lovlari va bu bo’yicha imtiyozlari (agar bor bo’lsa) haqidagi ma’lumotlar. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Akkreditatsiya organi, “O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish” agentligi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan beriladigan so’rovlar bundan mustasno.

6.7 Kalibrlash natijalari bo’yicha spetsifikatsiya yoki standartga muvofiqlik to’g’risida bayonotni “Buyurtmachi” so’ramaydi “Bajaruvchi” esa taqdim etmaydi (qolgan xizmatlar bundan mustasno).

6.8 Ushbu shartnomada ko’zda tutilmagan, qolgan barcha holatlar yuzasidan tomonlar O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini qo’llaydilar.

7. FORS-MAJOR

7.1 Agarda yengib bo’lmas kuch bilan bog’liq vaziyatlar, masalan: suv toshqini, yong’in, zilzila, epidemiya, harbiy mojarolar, tomonlar tarafidan mazkur shartnoma shartlarini bajarishga ta’sir ko’rsatuvchi hukumat yoki mahalliy hokimiyatlar tomonidan qabul qilingan farmoyish, buyruq yoki boshqa ma’muriy qarorlar, ma’muriy yoki hukumatning cheklovchi qarorlari va hokazolar yuzaga kelish hollari bevosita yoki bilvosita namoyon bo’lgan taqdirda shartnoma shartlarini bajarish ushbu holat tugash muddatigacha uzaytiriladi.

7.2 Fors-major holati mavjud bo’lgan tomon 5(besh) kun ichida boshqa tomonlarni fors-major holati boshlanishi va tugashi muddatlarini ko’rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirilishi lozim.

7.3 Agar fors-major holati mazkur shartnoma shartlarini bajarishga 12 oydan ko’p muddat talab qilsa tomonlarning har biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1 Shartnoma unga tomonlarning imzo qo’ygan vaqtdan (imzo qo’yilgan sana) kuchga kiradi hamda ushbu shartnoma bandlari to’liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

Shartnoma “Buyurtmachi” tomonidan 15 (o’n besh) ish kuni mobaynida elektron tarzda tasdiqlanmagan taqdirda, “Bajaruvchi” tomonidan bir tomonlama shartnomani bekor qilish uchun asos bo’ladi.

8.2 Shartnoma ikki nusxada - har bir tomon uchun bittadan tuzilib, ikkalasi ham bir hil yuridik kuchga ega.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KELISHUV

9.1 Shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta’minlaydi; ya’ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslar, benefisiari va shartnomani amalga oshirishdagi hamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo’yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

9.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol

yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni (78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplashni talab qilishiga haqli emas.

10. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI

"BAJARUVCHI"

"BUYURTMACHI"

"ЎзММИ" ДМ (Бекобод филиали)

"TEXNOPARK" MCHJ

Бекобод ш., Хотира кўчаси, 116 уй.

г.Ташкент, Яшнобадский район , ул. Эльбек 61

H/r 20210000300775480103

H/r 20208000705090819009

"Ipak Yo'li" AIT banki Sag'bon filiali

Яшнободский филиал Узпромстройбанка

Bank kodi 01036

Bank kodi 00440

QQS raq.: 326090015935

STIR 306493973

STIR 304909478

IFUT 1726290

IFUT 71200

Tel. 97 712-7181

Tel. 70-913-32-05



Shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. Ushbu QR-kod shartnoma bajaruvchi tomonidan tasdiqlanganini bildiradi.



Shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. Ushbu QR-kod shartnoma buyurtmachi tomonidan tasdiqlanganini bildiradi.